

“Sharq taronalari”

“Musiq har qanday mamlakatda yashovchi odamlar tushunadigan tildir”.



Har ikki yilda bir marotaba Samarqand shahri butun dunyo musiqachilari uchrashadigan joyga aylanadi. Aynan shu yerda **“Sharq taronalari”** xalqaro musiqa festivali o‘tkaziladi.

Ilk festival **1997-yilda** bo‘lib o‘tgan. O‘sha davrda Samarqandga dunyoning **31 ta** mamlakatidan musiqachilar va ijrochilar kelishgan. Bugungi kunda festival **80 ta** mamlakatdan tashrif buyurgan ijrochilar, olimlar va davlat arboblari bir joyga jamlaydi.

Festival dunyoga mashhur **Registon** maydonida o‘tkaziladi, ushbu maydon bir necha kun mobaynida ochiq osmon ostidagi ulkan konsert sahnasiga aylanadi. Bu yerda turli xalqlarning musiqasi yangraydi, konsertlar, musiqachilar uchrashuvlari, milliy cholg‘ular va liboslar ko‘rgazmalari o‘tkaziladi.





“Sharq taronalari” festivali YUNESKO

ko'magida o'tkazilib, Markaziy Osiyoning yirik musiqa festivallaridan biri sanaladi. Uning bosh maqsadi dunyo xalqlarining musiqiy an'analarini saqlab qolish, odamlarni turli mamlakatlar madaniyati bilan tanishtirish, xalqlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlashdan iborat.

Festival davomida musiqachilar nafaqat sahnaga chiqadilar, balki bir-birlari bilan tanishadilar, turli xalqlarning musiqasini tinglaydilar, o'z urf-odatlarini bilan tanishtiradilar, tajriba almashadilar hamda yangi musiqiy asarlar va iste'dodli ijrochilarni kashf etadilar.

“Sharq taronalari” festivalining o'z madhiyasi bor. Uning musiqasini taniqli kompozitor **Dilorom Omonullayeva** yozgan. U musiqachilar oilasida tug'ilgan va yoshligidan musiqa bilan shug'ullangan. Kompozitor o'zining ijodiy faoliyati davomida operalar, simfonik asarlar, film va spektakllarga musiqalar, shuningdek, kattalar va bolalar uchun ko'plab qo'shiqlar yaratgan.



Dilorom Omonullayeva
1959–2025

Dilorom Omonullayevaning asarlari nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham ijro etiladi. U mamlakatimiz musiqiy madaniyatining rivojiga va yosh ijodkorlarni yetishtirishga ulkan hissa qo'shgan.

“Sharq taronalari” festivalining madhiyasini tinglang.

1. Musiqa qanday kayfiyat ulashmoqda?
2. Nega aynan bunday musiqa xalqaro festivalning ochilishiga mos keladi?
3. Ushbu madhiya qanday hissiyotlarni uyg'otmoqda?
4. Qanday qilib musiqa turli mamlakatlarda yashovchi odamlarni birlashtiradi?



3

Har bir sahna chiqishi tomoshabinlarni dunyoning turli xalqlari musiqiy madaniyati bilan tanishtiradi.



O'zbekiston



O'zbekiston



Ispaniya



Litva



Afg'oniston



Indoneziya

Festival davomida dunyoning turli burchaklaridan kelgan musiqachilar bitta sahnada chiqishadi. Ishtirokchilarning tili, urf-odatlar va musiqiy uslubidan qat'i nazar, ularni musiqaga bo'lgan muhabbat birlashtiradi.



Festival suratlarini tomosha qiling.



1. Festivalda san'atning qaysi turlari namoyish etilgan?
2. Qanday cholg'ularga ko'zingiz tushdi?
3. Ishtirokchilarning milliy liboslari bir-biridan qanday farqlanadi?
4. Nima uchun musiqachilarga bir-birining ijodi bilan tanishish qiziqarli?

Konsertdan keyin ham ishtirokchilar o'zaro muloqot qilishda davom etadilar, bir-birlarining milliy cholg'ulari va musiqiy an'analari bilan tanishadilar, yangi ijrochilarni kashf etadilar va birgalikda ijodiy loyihalar yaratadilar.

Bunday uchrashuvlar tufayli musiqa turli mamlakatlardan tashrif buyurgan odamlarning bir-birlarini tushunishiga, do'stlik aloqalarini saqlab qolishiga va boshqa xalqlarning madaniyatini hurmat qilishiga yordam beradi.



Nima uchun **musiqa chegara bilmaydi** deb aytishadi?



Festival ishtirokchilarining chiqishlaridan birini tinglang.

1. Qaysi cholg'ular tovushini eshitdingiz?
2. Ushbu asar sizga tanish bo'lgan boshqa asarlardan nimasi bilan farq qiladi?
3. Ushbu sahna chiqishi qanday hissiyotlarni uyg'otadi?
4. Turli xalqlar musiqasini nima birlashtiradi?



Musiqiy sayohat

Tasavvur qiling, siz **“Sharq taronalari”** festivalining ishtirokchisi bo'ldingiz.

Mehmonlarni O'zbekiston madaniyati bilan tanishtirish uchun qanday qo'shiq yoki musiqiy asar ijro etgan bo'lardingiz? Nima uchun aynan shunday tanlov qildingiz?



Tasavvur qiling, sinfingizga boshqa mamlakatdan bolalar kelishdi. Ularga O'zbekistonning qanday musiqiy an'analari haqida gapirib bergan bo'lardingiz? Mehmonlarga qaysi musiqiy cholg'ularni ko'rsatgan bo'lardingiz?



Musika odamlarga bir-birini so'zsiz tushunishga yordam beradi. U turli mamlakat vakillarini birlashtiradi, dunyo xalqlarining urf-odatlarini bilan tanishtiradi va har bir xalqning madaniyatini hurmat qilishga o'rgatadi.



- Festival ishtirokchilari haqida qisqacha ma'lumot tayyorlang.
- “Sharq taronalari” festivalining ramziy belgisini chizing yoki turli mamlakatlardan kelgan musiqachilarni birlashtiradigan timsol o'ylab toping. Nima uchun bunday tasvir tanlaganingizni tushuntiring.

